

**OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY TA'LIM TIZIMI
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

BOZORBAYEV ILYOSBEK ISRAILOVICH

**KONTEKSTLI O'QITISH ASOSIDA PEDAGOG KADRLARNING
MAXSUS KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in pedagogical sciences**

Bozorbayev Ilyosbek Israilovich

Kontekstli o‘qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini
rivojlantirish3

Бозорбаев Ильёсбек Исраилович

Развитие специальной компетентности педагогических кадров на основе
контекстного обучения.....23

Bozorbayev Ilyosbek Israilovich

Development of special competence among teaching staff through contextual
learning.....47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications.....52

**OLIIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI OLIY TA'LIM TIZIMI
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

BOZORBAYEV ILYOSBEK ISRAILOVICH

**KONTEKSTLI O'QITISH ASOSIDA PEDAGOG KADRLARNING
MAXSUS KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Ped10657 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) bajarilgan hamda Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.bimm.uz) va «ZiyoNET» axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ergashov Yoqub Suvonovich

Fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kurbaniyazova Zamira Kalbayevna

pedagogika fanlari doktori, professor

Hamidov Vohid Sobirovich

fizika-matematika fanlari bo'yicha

falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "26" 08 kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy). Tel.: (+99871) 202-01-20, faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (41 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20; e-mail: info@bimm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "10" 08 kuni tarqatildi.
(2026-yil "10" 08 dagi 14 -son reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

A.S.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika
fanlari doktori (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda zamonaviy o'qitish shakllarining jadal rivojlanishi bugungi kun pedagogidan kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish uchun maxsus bilimlarini muntazam boyitib borishni taqozo etmoqda. Pedagog kadrlarning sohaga oid maxsus bilimlarini boyitish orqali kompetentligini muttasil rivojlantirishga jahon hamjamiyati tomonidan katta e'tibor qaratilmoqda. UNESCO tomonidan ilgari surilgan 2030-yilgacha mo'ljallangan Umumjahon ta'lim konsepsiyasi ta'lim jarayonini insonning butun hayoti davomida kechadigan rivojlanish maydoni sifatida talqin etadi. Ushbu yondashuv pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatini yangicha tushinishda muhim omil bo'lib, ulardan o'z kompetensiyalarini muntazam chuqurlashtirish, kasbiy refleksiya va ijodiy tafakkurni rivojlantirishni talab qiladi. Ta'lim mazmuni bilan real kasbiy jarayon o'rtasidagi uzluksiz muloqot va amaliy uyg'unlikni ta'minlash, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda aniq yechimlarga aylantirish pedagogning maxsus kompetentligini shakllantirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Shu sababli pedagogning kasbiy tayyorgarligi endilikda faqat bilimlar yig'indisi emas, balki nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liq kontekstida faoliyat ko'rsata olish qobiliyati sifatida talqin qilinmoqda.

Jahonning yetakchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish masalasi so'nggi yillarda diqqat markaziga chiqmoqda. Bu jarayonda mutaxassislarning o'z kasbiy salohiyatini mustaqil ravishda rivojlantirishi, tadqiqotchilik kompetensiyalarini egallashi hamda amaliy faoliyat uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni to'plashi alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu omillar Z avlod vakillarini kontekstga yo'naltirilgan ta'lim muhitida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishning asosiy sharti sifatida qaralmoqda. Jumladan, Finlandiya, Singapur, AQSh va Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda "Teach Less, Learn More" konsepsiyasiga muvofiq ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashi, real vaziyatlarda qaror qabul qilishi, kasbiy vaziyatlarni modellashtirishi va reflektiv tahlil ko'nikmalarini egallashi orqali maxsus kompetentligini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday integratsiya pedagoglarning ish jarayonida yuzaga keladigan shaxsiy, tashkiliy va kasbiy-ijtimoiy talablarga moslashuvchan javob berish imkoniyatini kengaytiradi. Natijada o'quv jarayoni mazmuni real faoliyat sharoitlariga yaqinlashadi va pedagog kadrlar kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan ehtiyojlarni aniqroq qondira oladigan tayyorgarlikka ega bo'ladilar.¹

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida uzluksiz ta'limni, xususan, oliy ta'limni modernizatsiya qilishga katta e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi zamonaviy pedagog oldiga dunyoqarash va kreativ fikrlashni rivojlantirish, sohaga oid maxsus bilimlarni chuqur egallash kabi muhim vazifalarni qo'yimoqda. O'zbekiston ta'lim tizimida

¹ 2005-yilda Singapur Ta'lim vazirligi tomonidan joriy etilgan ta'lim konsepsiyasi bo'lib, uning asosiy g'oyasi — kamroq o'qitish orqali talabning ko'proq va chuqurroq o'rganishini ta'minlashdir <https://www.nlb.gov.sg/main/article-detail?cmsuuiid=bf38bb79-2b26-4068-828c-c89246c65c10>

amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlari ushbu yo‘nalish uchun metodologik asos yaratdi. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirishga doir so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ta‘lim jarayonini yangi konseptual asosda tashkil etishga xizmat qilmoqda. Davlat darajasida belgilangan strategik yo‘nalishlar mazkur jarayonning izchil rivojlanishini ta‘minlamoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonida oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan hamda ta‘lim mazmunini yangilash va pedagog kadrlar tayyorgarligini zamonaviy talablar bilan uyg‘unlashtirish zarurati asoslangan. Keyingi bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida inson kapitalini rivojlantirish, kasbiy malakalarni xalqaro me‘yorlar darajasida shakllantirish hamda ta‘lim tizimiga innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Bu esa pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish uchun institutsional va metodologik asoslarni yanada mustahkamladi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmon orqali normativ asosga ega bo‘ldi; unda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasining oliy ta‘lim jarayoniga integratsiyasi pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishda yangi standartlarni belgilab berdi. Pedagog kadrlar tayyorgarligi tizimini qayta ko‘rib chiqishga doir yondashuvlar 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son Farmon hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi 797-son qarori bilan mustahkamlandi. Ushbu hujjatlar oliy ta‘lim muassasalari rahbarlari va pedagoglari uchun zamonaviy malaka oshirish mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi 287-son qarori kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimining asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. Mazkur hujjatlar majmuasi tadqiqot dolzarbligini asoslashning metodologik yo‘nalishini ko‘rsatib, ta‘lim islohotlari bilan bog‘liq ilmiy tahlillar uchun zarur normativ-huquqiy maydonni shakllantiradi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini rivojlantirish muammolari J.G‘.Yo‘ldoshev, A.T.Gulboev, N.A.Muslimov, Sh.Saidqulov, Sh.K.Mardonov, Dj.U.Kusharbaev va I.R.Choriev tomonidan; ta‘lim mazmunini tanlashning ilmiy-metodik asoslari, jumladan, ta‘lim jarayonini zamon talablariga muvofiq axborotlashtirish masalalari esa U.Sh.Begimkulov, A.Abduqodirov, R.X.Juraev, F.M.Zakirova, A.E.Obidov, T.T.Shoyardonov va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan. G.A.Aldjanova va N.Kuvvatovanning tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini

loyihali-kontekstli texnologiya sharoitida shakllantirishning didaktik imkoniyatlari aniqlashtirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida kontekstli ta'limni amalga oshirishning ilmiy-metodologik asoslari A.A.Verbitskiy, O.G.Larionova, N.A.Bashkirova, N.V.Borisova va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan. Bo'lajak soha mutaxassislarini tayyorlashda kontekstli o'qitishning o'rni E.M.Popova, V.F.Tenisheva, I.A.Jukova, L.A.Sergeeva, K.S.Gamburg kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Xorijiy olim F. Wolfenden tomonidan olib borilgan tadqiqot O'zbekistonda pedagoglar malakasini oshirish (CPD – Continuous Professional Development) tizimini kengaytirish va uning samaradorligini oshirishga bag'ishlangan. K.Rojers va D.Freybergning tadqiqotlarida maktab ta'limiga oid, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda o'qituvchi faoliyatiga tegishli kontekstlar o'rganilgan.

Turli ta'lim tizimlari, xususan, milliy model, MDH mamlakatlari va boshqa xorijiy tajribalar doirasida olib borilgan tadqiqotlar taqqoslanganda, pedagoglarning kasbiy rivojlanishi ko'pincha alohida yo'nalishlarga xos maxsus kompetensiyalarni shakllantirish bilan cheklanayotgani ko'rinadi. Bunday yondashuv pedagogik faoliyatning murakkab tuzilishi va ko'p qatlamli mazmunini yetarlicha aks ettirmaydi. Natijada kasbiy rivojlanish jarayoni keng qamrovli tizim sifatida emas, balki muayyan fan yoki tor ixtisoslik doirasidagi ko'nikmalarni egallash bilan cheklanib, pedagogning umumiy kasbiy salohiyatini to'liq namoyon etishiga to'sqinlik qilmoqda. Tadqiqot natijalari ta'lim mazmunini takomillashtirish va o'qitishda kontekstli yondashuvni joriy etish zaruratini ham ko'rsatadi. Amaldagi pedagogik faoliyatda kontekstli yondashuvning to'liq qo'llanilmayotgani va mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida yetarlicha tatbiq etilmayotgani sababli pedagoglarda maxsus kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimlarida o'quv faoliyatini tashkil etish" (2022–2024-yillar, IL-4821091576) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

kontekstli o'qitish asosida oliy ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarining maxsus kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish;

kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning tarkibiy-tuzilmaviy modelini takomillashtirish;

kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish;

kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minotini kengaytirish.

Tadqiqot obyekti uzluksiz malaka oshirish kurslarida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining maxsus kompetentligini kontekstli o'qitish asosida rivojlantirish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlari Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, Farg'ona davlat universiteti va Samarqand davlat universiteti huzuridagi PKQTUMO mintaqaviy markazlarida 219 nafar pedagog ishtirokida tashkil etildi.

Tadqiqot predmeti kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakllari, metodlari va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid nazariy, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish, pedagogik diagnostika metodlari (so'rovнома, anketa, suhbat, kuzatish, test), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik va ma'lumotlarni qayta ishlash, empirik va kvalimetrik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagidan iborat:

kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari ta'lim mazmunining funksional yaxlitligi va adaptiv rivojlanishini ta'minlovchi semiotik, imitatsion hamda ijtimoiy shakllarning o'zaro integratsiyasini prediktiv-analitik muvofiqlashtirish orqali aniqlashtirilgan;

pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning kontekstli o'qitishga asoslangan modeli ta'lim jarayonining dinamik trayektoriyasi va pedagogik faoliyatning intermodalligiga tayangan holda, kontekstual refleksiya hamda immersiv amaliyotlarning uzviyligini ta'minlovchi XK (Contextual Knowledge) va TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) komponentlarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish jarayoni uzluksiz malaka oshirishning auditoriya va auditoriyadan tashqari shakllarida funksional savodxonlik hamda amaliy faoliyat samaradorligining barqaror o'sishini ta'minlaydigan analitik-rezonlash, metakognitiv va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirilgan;

pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minoti autentik muhitda innovatsion moslashuvchanlik, amaliy-tatbiqiy va texnologik-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan Professional Development in CTL (Contextual Teaching and Learning) yondashuvining samaradorligini ta'minlovchi multidissiplinar va natijador uslubiy vositalarni ishlab chiqish asosida kengaytirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kontekstli o'qitish asosida oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining maxsus kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida "Kontekstli o'qitish nazariyasi va amaliyoti" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqildi;

kontekstli yondashuvga asoslangan “Kontekstli o‘qitish asosida pedagog kadrlar malakasini oshirish” nomli elektron qo‘llanma (DGU № 44428)dan amaliyotda foydalanildi;

oliy ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun “Kontekstli o‘qitish asosida pedagogning maxsus kompetentligini rivojlantirish” dasturi asosida qisqa muddatli malaka oshirish kursi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotdan kelib chiqqan xulosalarning barqarorligi bir nechta manbalar o‘zaro mos kelganida yaqqol namoyon bo‘ldi. Natijalar respublika va xalqaro darajadagi ilmiy anjuman materiallarida, OAK tasarrufidagi ilmiy jurnallarda hamda xorijiy ilmiy nashrlarda e’lon qilingan maqolalar bilan tasdiqlangan. Bundan tashqari, respondentlar bilan o‘tkazilgan muloqotlar, amaliy takliflar, tavsiyalar va yaratilgan metodik ishlanmalar amaliyotga joriy etilgani vakolatli tashkilotlar tomonidan rasmiy tarzda tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uzluksiz malaka oshirish tizimida oliy ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining maxsus kompetentligini kontekstli o‘qitish asosida rivojlantirishga doir mazmun, bosqichlar, shakl, metod va vositalarning aniqlashtirilganligi, shuningdek, ushbu jarayonni ta’minlovchi pedagogik shart-sharoitlarning tizimli asosda belgilab berilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa uzluksiz malaka oshirish kurslari doirasida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan raqamli metodik ta’minotning yaratilganligi, mustaqil ta’limni tashkil etishga xizmat qiluvchi “Kontekstli o‘qitish asosida pedagogning maxsus kompetentligini rivojlantirish” nomli qisqa muddatli o‘quv kursining ishlab chiqilganligi hamda “Kontekstli o‘qitish nazariyasi va amaliyoti” o‘quv qo‘llanmasi orqali tegishli metodikaning takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kontekstli o‘qitish asosida ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining maxsus kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

kontekstli o‘qitishga tayangan holda pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari ta’lim mazmunining funksional yaxlitligi va adaptiv rivojlanishini ta’minlovchi semiotik, imitatsion hamda ijtimoiy shakllar o‘zaro integratsiyasini prediktiv-analitik jihatdan muvofiqlashtirish orqali aniqlashtirildi. Mazkur yondashuvlar “Kontekstli o‘qitish asosida pedagogning maxsus kompetentligini rivojlantirish” nomli qisqa muddatli malaka oshirish kursi va o‘quv dasturi mazmuniga singdirildi hamda kurs <https://mk.bimm.uz> platformasiga joylashtirildi (Oliy ta’lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy-metodik kengashining 2024-yil 6-sentabrdagi 117-son bayonnomasi). Natijada pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish shart-sharoitlari tizimli ravishda aniqlashtirildi;

pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning kontekstli o‘qitishga asoslangan modeli ta’lim jarayonining dinamik trayektoriyasi hamda pedagogik faoliyatning intermodalligiga tayanib, kontekstual refleksiya va immersiv

amaliyotlarning uzviyligini ta'minlovchi XK (Contextual Knowledge) va TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) komponentlarini kiritish orqali takomillashtirildi. Mazkur tavsiyalar O'zbekiston Milliy universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil 27-martdagi 7-son qarori asosida "Kontekstli o'qitish nazariyasi va amaliyoti" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 27-fevraldagi 02/01-01-269-son ma'lumotnomasi). Natijada maxsus kompetentlikni rivojlantirishning metodik ta'minoti takomillashtirildi;

kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish jarayoni uzluksiz malaka oshirishning auditoriya va auditoriyadan tashqari shakllarida funksional savodxonlik, qaror qabul qilish hamda amaliy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi analitik-rezonlash, metakognitiv va kompetensiyaviy yondashuvlar asosida takomillashtirildi. Ushbu yondashuvlar pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlari dasturlarining modullariga integratsiya qilindi hamda "Kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlar malakasini oshirish" nomli elektron qo'llanma orqali amaliyotda qo'llandi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 27-fevraldagi 02/01-01-269-son ma'lumotnomasi). Natijada maxsus kompetentlikni rivojlantirish mazmuni yangilandi;

pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik ta'minot autentik ta'lim muhitida innovatsion moslashuvchanlik, amaliy-tatbiqiy hamda texnologik-pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan multidissiplinar va natijador uslubiy vositalarni ishlab chiqish orqali kengaytirildi. Ushbu yondashuvlar Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining 2022–2024-yillarda bajarilgan "Masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda o'quv faoliyatini tashkil etish" (IL-4821091576) amaliy loyihasi doirasida "Kontekstli o'qitish asosida pedagogning maxsus kompetentligini rivojlantirish" qisqa muddatli kursi va "Kontekstli o'qitish nazariyasi va amaliyoti" o'quv qo'llanmasini joriy etish jarayonida qo'llanildi (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 27-fevraldagi 02/01-01-269-son ma'lumotnomasi). Natijada metodik ta'minot doirasi kengaytirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 145 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqotning usullari, aniqlangan ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, tadqiqot ishining aprotatsiyasi, tuzilishi va hajmiga oid ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kontekstli o‘qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonida kontekstli o‘qitishni joriy etishning nazariy-ilmiy asoslari hamda pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

Tadqiqot ishining mazkur bobida ta‘lim sohasida dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlarga moslashish uchun, eng avvalo, oliy ta‘lim muassasalari pedagog kadrlarining maxsus kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlari mazmuni keltirilgan. Ilmiy-tadqiqot ishlarining qiyosiy tahlili pedagoglarga qo‘yilayotgan malaka talablari va kasbiy rivojlanish uchun malaka oshirish tizimida o‘ziga xos muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Bular:

- oliy ta‘lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagoglarning funksional savodxonligi va zamonaviy o‘qitish (analitik-rezonlash, metakognitiv hamda kompetensiyaviy yondashuvlar) talablari o‘rtasida;

- dunyoda zamonaviy pedagogik texnologiyalar samarali qo‘llanilayotgan sharoitda malaka oshirish jarayonida tinglovchilar uchun tashkil etilayotgan o‘quv mashg‘ulotlari sifati o‘rtasida;

- davlatimiz tomonidan qo‘yilgan ijtimoiy buyurtma (ya‘ni pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish) bilan malaka oshirish jarayoni uchun yaratilgan namunaviy dasturlar hamda kasbiy mahoratni oshirish imkonini bermaydigan an‘anaviy, ya‘ni reproduktiv o‘qitish metodlarining hanzuz qo‘llanib kelinishi o‘rtasida.

Mazkur bobda “kontekst” so‘zining etimologiyasi (contextus – lotincha so‘z bo‘lib, qo‘shilish, ulanish, bog‘lanish kabi ma‘nolarni anglatadi) ochib berilgan hamda “ta‘lim mazmuni va uning konteksti qanday bo‘lishi kerak?”, “Kontekstli o‘qitishda tizimli-faoliyatli yondashuv qanday amalga oshiriladi?” kabi savollar atroflicha tahlil qilingan. Shuningdek, kontekstli o‘qitish texnologiyasi bo‘yicha A.A.Verbitskiy ilmiy maktabi hamda boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Kontekstli o‘qitish, bir tomondan, shaxsga yo‘naltirilgan bo‘lib, ta‘lim oluvchilarning ehtiyojlarini aks ettiradi, boshqa tomondan esa kengroq ijtimoiy kontekstda ifodalangan kasbiy faoliyat xususiyatlariga mos keladi. Kontekstli o‘qitishda nafaqat ijtimoiy tajriba takrorlanadi, balki ijodiy rivojlanish orqali mutaxassisning shaxsiy sifatlari ham rivojlanadi. “Kontekstli o‘qitish” vositasida

malaka oshirish muassasalarida pedagoglarning maxsus kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish o'quv faoliyatini (turli ko'rinishdagi ma'ruzalarni o'qish, ya'ni axborotli ma'ruza, muammoli ma'ruza, tadqiqot olib borishga yo'naltirilgan ma'ruza), kvazikasbiy faoliyatni (imitatsion shakldagi amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish, talabalarni kasbga tayyorlash uchun trening mashg'ulotlarini olib borish ko'nikmalarini shakllantirish) va ilmiy-kasbiy faoliyatni (o'z malakasini oshirish, tadqiqotlar olib borish, ilmiy anjumanlarda qatnashish, ilmiy asarlar, jumladan maqola, monografiya va dissertatsiya ishlarini tayyorlash hamda tadqiqotchilarga ilmiy rahbarlik qilish) rivojlantiradi.

Mutaxassis tayyorlaydigan har qanday oliy ta'lim muassasasining nufuzi, bir tomondan, u tayyorlayotgan kadrlar salohiyati bilan, ikkinchi tomondan esa mazkur ta'lim muassasasida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning kasbiy mahorati, yuqori darajadagi ko'nikmalari (Soft Skills), funksional savodxonligi va ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligining rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Olib borilgan tadqiqotimiz davomida kontekstli o'qitish vositasida pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishida "maxsus kompetentlik" tushunchasining mazmun-mohiyati, tarkibiy qismlari, zamonaviy ta'limda tutgan o'rni va pedagogik faoliyatga ta'siri o'rganildi. Tahlil natijalariga ko'ra, maxsus kompetensiyalar nafaqat ta'lim jarayonida, balki kasbiy faoliyatda ham innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishning shakl va vositalari sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi.

Mazkur bobda pedagog kadrlarning malakasini oshirishda kontekstli o'qitish asosida shakllantirilishi zarur bo'lgan kompetensiyalarning turlari – axborot-tahliliy, kommunikativ, texnologik, loyihaviy, reflektiv va boshqa kompetensiyalar olinib, ularning o'zaro bog'liqligi qiyosiy o'rganildi, jumladan ta'lim oluvchilarning kasbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan real sharoitdagi muammoli topshiriqlarni hal qilishi, ularning kasbiy refleksiyasi va boshqalar. Shuningdek, bobda kontekstli o'qitish orqali amalga oshiriladigan metodik yondashuvlarning (muammoli ta'lim, interaktiv usullar, ijodiy topshiriqlar, kasbiy treninglar va loyiha asosidagi o'qitish metodlari) tahliliga ko'ra pedagoglarda analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarni baholash, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish ko'nikmalari shakllanishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

Me'yoriy hujjatlar hamda turli olimlarning izlanishlarida "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalariga turlicha ta'rif va yondashuvlar berilgan bo'lib, mazkur tadqiqotda ushbu tushunchalarga mualliflik nuqtai nazaridan tavsiflar ham ishlab chiqildi.

Kompetensiya – shaxsning kasbiy faoliyat sohasiga tegishli aniq bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga hamda kasbiy muammolarni hal etishga qaratilgan vazifalar majmuasi.

Kompetentlik – shaxsning kasbiy faoliyat yo'nalishida ijtimoiy va ta'limiy talablar asosida shakllangan integrativ bilim, amaliy ko'nikma, kasbiy qadriyat va texnologiyalarni muvaffaqiyatli uyg'unlashtirgan holda muammoli vaziyatlar yechimini samarali ishlab chiqish layoqatiga ega bo'lishidir.

Maxsus kompetentlik – pedagogning muayyan fan, kasb yoki mutaxassislik doirasida zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalarni real ta'lim

kontekstiga mos holda samarali qo'llay olishi, talabalarning individual ehtiyojlarini hisobga olib pedagogik yechimlar ishlab chiqishi hamda muammoli vaziyatlarda asoslangan kasbiy qarorlar qabul qila olish layoqatidir.


Kontekstli o'qitish texnologiyasini malaka oshirish tizimiga joriy etish orqali zamonaviy pedagog kadrlarning kasbiy faoliyatini samarali tashkil qilish, ularning shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish sharoitlari asoslangan. Ushbu yondashuv nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshirish, balki ta'lim tizimining umumiy raqobatbardoshligini ta'minlashda ham muhim o'rin egallaydi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim islohotlarining mazmun-mohiyatiga mos, zamonaviy va innovatsion fikrlovchi pedagog kadrlarni tayyorlash uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratadi.

Dissertatsiyaning **“Kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shakl, usul va vositalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini kontekstli o'qitish asosida rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shakl, usul va vositalar tizimlashtirilgan. Pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish jarayonini modellashtirish, kontekstli o'qitish texnologiyasini malaka oshirish jarayoniga joriy etishning pedagogik shartlari o'rganilgan hamda pedagog kadrlarning maxsus kompetentligi rivojlanganlik darajasini baholash mezonlari ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda bilim, ko'nikma va malakaga asoslangan “bilimdonlik” modelidan shaxsda kasbiy kompetentlikni ta'minlovchi o'qitishning “kompetensiyaviy” modeliga o'tish zaruriyatini dunyoning ko'plab mamlakatlari olimlari qo'llab-quvvatlamogda. Chunki kompetensiyaga asoslangan ta'lim shaxs va jamiyat manfaatlarini uyg'unlashtirgan holda, mehnat bozori va ijtimoiy buyurtma talablariga ko'ra mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etmogda. Shaxsning rivojlanishida, ya'ni o'quvchi → talaba → mutaxassis (masalan, pedagog) bosqichlariga o'tish davrida kompetensiyalarning har bir bosqichda oldingisiga nisbatan rivojlanib borishi (kompetent mutaxassis modeli) mutaxassisning funksional tayyorgarligi hamda ijtimoiy yetukligini belgilaydi.

Bizning qarashlarimizga ko'ra, yuqorida keltirilgan kompetent mutaxassis modellari asosini pedagogning maxsus kompetentligi, ya'ni maxsus bilimlar, ko'nikmalar va qobiliyatlar tashkil etadi. Shunga ko'ra, biz malaka oshirish jarayonida kontekstli (semiotik, imitatsion va ijtimoiy) o'qitish shakllarini joriy etish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish modelini ishlab chiqdik.

Ishlab chiqilgan model maqsadli, metodologik, protsessual-faoliyatli va baholash qismlaridan iborat. Shu bilan birga, model tarkibidagi asosiy qismlarda mutaxassisning shaxsiy-kasbiy jihatdan ahamiyatli sifatleri va ijtimoiy-madaniy kompetentligiga ham e'tibor qaratilgan. Malaka oshirish, ya'ni qo'shimcha ta'limda kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish modeli 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Kontekstli o'qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini XK va TPACK komponentlari asosida rivojlantirish modeli

Modelning metodologik asosini A.A.Verbitskiyning kontekstli o'qitish nazariyasi tashkil etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash real pedagogik vaziyatlarga yaqinlashtirilgan ta'lim muhiti orqali amalga oshiriladi. Shu asosda pedagog kadrlar malakasini oshirish jarayonida kontekstli o'qitish hamda XK (Contextual Knowledge) va TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) yondashuvlari integratsiyasiga tayangan holda pedagoglarning maxsus kompetentligini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Modelning maqsadi pedagoglarning zamonaviy kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi maxsus kompetentligini rivojlantirishdan iborat.

Model tizimli-faoliyatli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan va kontekstli yondashuvlarga asoslanadi. Uni amalga oshirishda zamonaviy ta'lim muhitini yaratish, kasbiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlash, raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish hamda refleksiv faoliyatni rivojlantirish asosiy pedagogik shart-sharoitlar sifatida belgilandi. Malaka oshirish jarayoni ma'ruza, seminar, trening, amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim shakllarida tashkil etilib, muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha metodi, interfaol metodlar va kontekstli topshiriqlar asosida amalga oshiriladi.

Modelning mazmuni pedagoglarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, kasbiy muammolarni tahlil qilish, innovatsion yechimlarni ishlab chiqish hamda refleksiv faoliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bunda o'quv jarayoni kasbiy vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, raqamli ta'lim vositalari va hamkorlikdagi faoliyat asosida tashkil etilib, pedagoglarning mustaqil fikrlashi, kasbiy tajribasini boyitishi va uzluksiz kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur jarayon fan mazmuni, pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalarning integratsiyasiga asoslanib, ta'limning amaliy yo'naltirilganligini kuchaytiradi.

Modelda pedagoglarning maxsus kompetentligi XK va TPACK komponentlarining integratsiyasi orqali rivojlantiriladi. XK pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va samarali yechimlar ishlab chiqishga xizmat qilsa, TPACK texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlarning uyg'unligini ta'minlaydi. Natijada pedagoglarda motivatsion-qadriyat, kognitiv-faoliyat hamda shaxsiy va shaxslararo transformatsiya komponentlari rivojlanadi. Modelni amalga oshirish jarayonida pedagoglarning kasbiy rivojlanish dinamikasi muntazam monitoring va diagnostika vositalari orqali kuzatilib, olingan natijalar asosida ta'lim mazmuni hamda o'qitish metodlariga zarur tuzatishlar kiritiladi. Bu esa pedagoglarning kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlarni qo'llash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga bo'lgan tayyorligini oshirishga xizmat qiladi. Kompetentlikning shakllanish darajasi reproduktiv, produktiv va ijodiy mezonlar asosida baholanadi hamda pedagoglarning zamonaviy ta'lim talablariga mos innovatsion kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotimiz pedagogning funksional savodxonlik (bilimlarni yetkazish, muammolarni hal qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, kreativ va tanqidiy fikrlash kabi) ko'nikmalari ularning shaxsiy, maxsus kasbiy va ilmiy-pedagogik kompetensiyalari rivojlanish jarayonini analitik-rezonlash,

metakognitiv va kompetensiyaviy yondashuvlar orqali ta'minlashga qaratilgan. Pedagogda shakllanishi lozim bo'lgan funksional savodxonlikni baholash darajalarini keltiramiz (1-jadval).

1-jadval

Pedagogda funksional savodxonlikning rivojlanganligini baholash darajalari

Reproduktiv daraja	– pedagogda XXI asr ko'nikmalarining rivojlanganligi; – bilishga bo'lgan ehtiyojning mavjudligi; – pedagogda soft skills (yumshoq ko'nikmalar), tayanch va mutaxassislik faniga oid kompetensiyalarning shakllanganligi; – xorijiy tillarni bilishi; – AKT dasturlaridan foydalana olishi.
Produktiv daraja	– pedagog axborotni mustaqil tahlil qilish, qayta ishlash va amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikmalariga ega; – muammoli vaziyatlarga moslashish va maqbul yechim topish qobiliyati rivojlangan; – kasbiy faoliyatda innovatsion yondashuvlardan foydalanadi; – pedagogik jarayonda mustaqil qaror qabul qiladi va tanqidiy fikrlaydi.
Ijodiy daraja	- pedagogda ijodiy yondashuv va muammolarni yangicha hal qilish qobiliyatining rivojlanganligi; - o'z metodikasini shakllantirish va takomillashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish; - didaktik jarayonda yangi texnologiyalar va strategiyalarni sinovdan o'tkazish va joriy etish; - kasbiy faoliyatga innovatsion yondashuvlarni samarali qo'llash.

Pedagogning kasbiy faoliyatida shakllangan metodik bilimlar, operatsion-metodik va psixologik-pedagogik ko'nikmalar majmuasi, shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda pedagogik metodlarni samarali qo'llashga tayyorgarligi uning metodik kompetentligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ushbu kompetentlik nazariy bilimlar bilan bir qatorda, amaliy faoliyatda innovatsion va moslashuvchan yondashuvlarni qo'llash hamda pedagogik jarayonni samarali boshqarish qobiliyatini ham qamrab oladi. Shu bilan birga, pedagogning maxsus kompetentligini rivojlantirishning metodik ta'minoti mazmunidagi amaliy-tatbiqiy va texnologik-pedagogik kompetensiyalarni **Professional Development in CTL** yondashuvi asosida rivojlantirish multidissiplinar bilimlarni integratsiyalash va samarali metodik vositalarni ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa pedagogning kasbiy o'sishi, innovatsion faoliyati va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu tariqa metodik, amaliy va texnologik kompetensiyalarni uyg'unlashtiruvchi tizimli yondashuv pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishi hamda innovatsion pedagogik yechimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Pedagogda metodik kompetentlikning rivojlanganligini baholash darajalari 2-jadvalda keltirilgan.

Pedagogda metodik kompetentlikning rivojlanganligini baholash darajalari

Reproduktiv daraja	– pedagog ta'lim metodlari va usullarini biladi, biroq ularni andozaviy tarzda qo'llaydi; – dars jarayonini an'anaviy o'qitish usullari asosida tashkil etadi; – faqat ayrim mavjud metodikalarga tayangan holda ishlaydi; – yangi pedagogik innovatsiyalarni o'rganish va joriy etishda faollik ko'rsatmaydi.
Produktiv daraja	– pedagog ta'lim jarayonida metodik innovatsiyalarni yaratadi, ularning samaradorligini tahlil qiladi va o'z tajribasini boshqalar bilan baham ko'radi; – ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari suradi, ilg'or tajribalarni ommalashtiradi va boshqalarni o'qitishga hissa qo'shadi; – o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahliliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanadi.
Ijodiy daraja	– pedagog tasdiqlangan DTS talablariga muvofiq kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini tavsiflay oladi; – ta'lim jarayoniga oid o'quv-me'yoriy hujjatlarni hamda yuqori turuvchi tashkilotlardan kelgan hujjatlarda belgilangan vazifalarni sharhlay oladi; – kasbiy mahoratini muntazam oshirishga intiladi, zamonaviy o'qitish metodlarini o'rganish va tatbiq etishga tayyor; – muammoli ta'lim, interaktiv yondashuv va differensial o'qitish metodlarini dars jarayonida qo'llay oladi; – kasbiy-funksional savodxonligi yuqori darajada rivojlangan; – o'quv dasturlari, darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalarni yaratish malakasiga ega; – kasbiy va ilmiy faoliyatda yutuqlarga erishgan; – talabalarni turli tadbirlar va ilmiy-tadqiqot ishlariga yo'naltira oladi.

Pedagoglarda ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligining rivojlanganlik darajasini aniqlash maqsadida kompleks diagnostik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida pedagoglarning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga oid nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, ilmiy izlanishlarni rejalashtirish va tashkil etish qobiliyati, tahliliy va tanqidiy fikrlash darajasi, shuningdek, o'z ilmiy faoliyatini refleksiv baholash imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari qo'llanildi. Xususan, pedagogik kuzatish, anketa so'rovi, suhbat, test sinovlari, ekspert baholash, amaliy topshiriqlarni tahlil qilish hamda pedagogik tajriba-sinov usullaridan foydalanildi. Mazkur usullar orqali olingan ma'lumotlar pedagoglarda ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligining shakllanganlik darajasini xolis va kompleks baholash imkonini berdi. Baholash jarayonida kompetentlikning motivatsion-qadriyat, kognitiv, amaliy-faoliyat va refleksiv komponentlari asos qilib olinib, har bir komponent bo'yicha mezonlar hamda ularning ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar pedagoglarning ilmiy muammolarni aniqlash, ilmiy izlanish metodlarini tanlash va qo'llash, olingan natijalarni tahlil qilish, ilmiy xulosalar chiqarish hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish darajasini baholash imkonini beradi. Pedagoglarda ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligining rivojlanganligini aniqlashda qo'llanilgan tadqiqot usullari, baholash mezonlari hamda ularning ko'rsatkichlari 3-jadvalda batafsil keltirilgan.

Pedagogda ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligining rivojlanganligini baholash darajalari

Reproduktiv daraja	– ilmiy tadqiqotlarga qiziqishi sust va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga passiv munosabatda bo‘ladi; – ilmiy ishlarga jalb etilgandagina qatnashadi, tashabbus ko‘rsatmaydi; – talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etmaydi yoki umumiy tavsiyalar bilan cheklanadi.
Produktiv daraja	– ilmiy tadqiqotlarga qiziqadi, ilmiy adabiyotlar bilan tanishadi va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqadi; – ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etadi va ilmiy maqolalar chop etadi; – talabalarga ilmiy izlanishlar bo‘yicha maslahat beradi, biroq ularning mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga ta’siri chegaralangan.
Ijodiy daraja	– mustaqil tadqiqot olib boradi va yangi ilmiy yo‘nalishlarni shakllantiradi; – ilmiy-tadqiqot ishlarida ilg‘or metodlarni qo‘llaydi, jamoaviy loyihalarga rahbarlik qiladi va ilmiy maktab yaratadi; – talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantiradi, ularni ilmiy loyihalar va grantlarga jalb etadi hamda yosh olimlarni tayyorlashga hissa qo‘shadi.

Malaka oshirish tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar va ilmiy-tadqiqot ishlari bo‘yicha qilingan tahlillarga ko‘ra, pedagog xodimlarni ilmiy-metodik jihatdan asoslangan istiqbolli dasturlar asosida kontekstli o‘qitish malaka oshirish tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Kontekstli o‘qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlari va uning natijalari tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida kontekstli o‘qitish asosida pedagog kadrlarning maxsus kompetentligini rivojlantirish jarayonida tajriba-sinov ishlariga oid matematik-statistik hisoblashlar ishlab chiqilgan. Pedagogik tajriba-sinov ishlari uch bosqichda: 2022 – 2024-yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi mintaqaviy malaka oshirish markazi, Samarqand davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy malaka oshirish markazi, Farg‘ona davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy malaka oshirish markazi hamda Buxoro davlat universiteti huzuridagi mintaqaviy malaka oshirish markazi tinglovchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda tabiiy va aniq fanlar pedagog kadrlari ishtirok etdi.

